

619.616 34.+002 636.7.

BUZOQLAR DISPEPSIYASINI DAVOLASH VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI

Ibragimov B.X. - v.f.n., dotsent

Ravshanova F.S. – assistenti

ORCID - 0009-0001-7461-7244

ravshanovaf4@gmail.com

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Аннотация. В этой статье приведены данные о причинах диспепсии среди телят, механизмы развития заболевания, симптомы и диагностика, методы лечения и профилактики до конца не изучены а также проведены исследования по усовершенствованию методов лечения.

Ключевые слова: Электролитно-дегидратационный раствор (ЭДЭ), относительно небольшая масса тела, окситетрациклин гидрохлорид, бентонит, электролит-вода

Annotatsiya. This article presents data on the causes of dyspepsia in the calf, the mechanism of development of the disease, symptoms and diagnosis, methods of treatment and prevention, research and research, improvement of methods of treatment.

Key words: Electrolyte-dehydration solution (EDE, relatively small body weight, oxytetracycline hydrochloride, bentonite, electrolyte-water.

Mavzuning dolzarbligi. Sutdan chiqarilgan bo'g'oz sigirlarning mikroelementozlar bilan kasallanishi oqibatida homilaning rivojlanishida etishmovchiliklar kuzatilishi, ulardan sog'ib olingan uviz suti biologik qiymatining pasayishi, ulardan tug'ilgan buzoqlarda tana vaznining nisbatan kichik (13,4 foizgacha) bo'lishi va tana vazni kunlik o'sishining pasayishi (14,4 foizgacha), shuningdek, buzoqlar orasida dispepsiya kasalligining nisbatan ko'p qayd etilishiga qaramasdan kasallikning rivojlanish mexanizmlari, simptomatikasi va diagnostikasi, davolash va oldini olish usullari to'lig'icha o'rganilmagan.

Tadqiqotlar ob'ekti va uslublari. 3 boshdan 1-7 kunlik buzoqlar bo'lgan ikkita guruh tashkil etildi, ikkinchi guruhga esa dispepsiya bilan kasallangan buzoqlar ajratilib, klinik-fiziologik tekshirishlardan va ulardan olingan na'munalari laborator tekshirishlardan o'tkazildi.

Birinchi tajriba guruhidagi kasal buzoqlar quyidagi tartibda davolandi:

- 10%-li bentonit eritmasidagi yantoq va achchiq shuvoq damlamasidan oziqlantirishdan 0,5 soat oldin 300 ml, kuniga 3 marta ichirildi. Damlamani tayyorlash uchun 0,5 kg maydalangan yantoq va 0,5 kg achchiq shuvoq olingan idishga 10 litrga etguncha 80-100°S haroratdagi 10%-li bentonit eritmasi solinib, 5 soat davomida iliq xona haroratida saqlandi. Damlama dokada sizdirilgandan keyin undan 2 sutka davomida foydalanildi. Bentonitning 10%-li eritmasini tayyorlash

uchun 1 kg maydalangan bentonit ustiga 10 litrga etguncha vodoprovod suvi solinib, yaxshilab aralashtiriladi, 1 soat tindirilgach, uning ustki qismi dokada sizdirib olinib, 30-40 daqiqa qaynatiladi.

- Vena orqali tarkibi: 10,0 natriy xlorid, 5,0 natriy gidrokarbonat, 50,0 glyukoza, 0,25 kaliy xlorid, 0,5 kofein natriy benzoat va 1000,0 gacha distillangan suvdan iborat eritma iliq holda tomchilatish usulida 30 ml/kg miqdorda yuboriladi. Eritma shartli ravishda “Elektrolitli-degidratatsion eritma” (EDE) deb ataldi.

Ikkinchi nazorat guruhdagi dispepsiya bilan kasallangan buzoqlar xo‘jalik variantida davolandi.

Barcha guruhlarda antibakterial vosita sifatida oksitetratsiklin gidroxlorid antibiotigidan 5 ming TB/kg dozada kuniga bir marta muskul orasiga in‘eksiya qilindi. Davolash tajribalari o‘rtacha 7 kun davom etdi.

Ishlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda iqtisodiy samara me‘zonlari sifatida tajribadagi sigirlardan tug‘ilgan buzoqlarning tug‘ilgandagi tana vazni, uning kunlik ortishi va sigirlarning sut mahsuldorligi hisobga olindi.

Dispepsiyaga xos klinik belgilarni birinchi tajriba guruhida davolanayotgan buzoqlarda davolashning 5- kuniga kelib, ikkinchi guruhdagi buzoqlarda esa davolashning 3- kunida deyarli yo‘qolishi xarakterli bo‘ldi. Birinchi guruhda buzoqlarning to‘liq sog‘ayishi davolashning 7- kuniga, ikkinchi guruhda esa davolashning 5- kuniga to‘g‘ri keldi.

Xo‘jalik variantida davolanayotgan uchinchi nazorat guruhidagi buzoqlarda davolashning oxirgi kunlariga kelib, dastlabki ko‘rsatkichlarga nisbatan tana haroratining o‘rtacha 2°C ga pasayishi, 1 daqiqadagi puls va nafas sonining $168,5 \pm 3,8$ va $66,1 \pm 1,83$ matagacha ortishi, ishtaha, emish va so‘rish reflekslarining yo‘qolishi, holsizlanish, teri qoplamasi yaltiroqligining pasayishi, ko‘z olmasining kuchli darajada cho‘kishi, burun oynasining quriqlashishi, ta’sirotlarga befarqlik, ixtiyorsiz ravishda tezaklash, dum va anus atrofining tezak bilan ifloslanishi, oriqlash kabi toksik dispepsiyaga xos belgilarning kuzatilishi xarakterli bo‘ldi.

Dispepsiya bilan kasallangan buzoqlarda davolash tajribalarini o‘tkazish bilan shunday xulosaga keldikki, yantoq va achchiq shuvoqning 10%-li bentonit eritmasida tayyorlangan damlamasidan kuniga 2 marta, oziqlantirishdan 0,5 soat oldin 300 ml ichirish, “Elektrolitli-degidratatsion eritma”dan 1000 ml gacha vena qon tomiriga tomchilatish usulida kuniga bir marta yuborishning samaradorligi boshqa usullarga nisbatan yuqori bo‘lib, organizmda kislota-ishqor muvozanati, elektrolit-suv almashinuvi, jigarning funksional holati va parenximasining qayta tiklanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, hamda kasallangan buzoqlarning qisqa muddatlarda sog‘ayishini ta’minlaydi.

Tajribalarning boshida birinchi tajriba guruhida davolanayotgan buzoqlardan olingan punktatda shakli o‘zgargan hepatotsitlar o‘rtacha 51,9%, ikkinchi guruhda 54,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, davolashning oxiriga kelib, bu ko‘rsatkichni birinchi guruhda 30,7% va ikkinchi guruhda 19,6 foizgacha kamayishi, nazorat guruhidagi buzoqlarda esa 48,8 foizdan 68,8 foizgacha ortishi kuzatildi.

Tajriba va nazorat guruhidagi buzoqlarning tana vazni davolashning davomida faqatgina birinchi tajriba guruhida tana vaznining kunlik ortishi kuzatilib, o‘rtacha $105,2 \pm 15,7$ grammni, tana vaznining 10 kun davomidagi o‘sishi 1,05 kg.ni tashkil

etdi. Ya'ni nazorat guruhidagi buzoqlarga nisbatan 119 foizga yuqori bo'ldi. Nazorat guruhidagi buzoqlarda esa tana vaznining davolash davomida kamayishi o'rtacha 2,6 kg.ni tashkil etdi

Xulosalar.

1. Buzoqlada klinik belgilar: holsizlanish, ishtahaning, emish va so'rish reflekslarining yo'qolishi, ta'sirotlarga befarqlik, teri sezuvchanligining pasayishi, qo'lansa hidli, shilimshiq modda, ba'zan qon aralash sarg'ich-oq rangdagi ich ketishi, teri qoplamasi yaltiroqligining pasayishi, ko'z olmasining kuchli darajada cho'kishi va burun oynasining quruqlashishi, ayrim buzoqlarda tashqi shilliq pardalarning sianozi va oriqlash bilan tavsiflanadi. Puls tezlashgan, ipsimon bo'lib, yurak tonlari juda past eshitiladi. Nafas harakatlari qiyinlashgan, yuzaki va juda tezlashgan bo'lib, tana harorati, shuningdek, oyoq va quloqlarning harorati pasayib boradi. Kasallangan buzoqlarda gandaraklash, tana orqa qismining falaji, ko'pincha yotib qolish qayd etiladi.

2. Dispepsiya bilan kasallangan buzoqlarni davolash uchun kasallikning dastlabki daqiqalaridan boshlab, 10%-li bentonit eritmasidagi yantoq va achchiq shuvoq damlamasidan 300 ml oziqlantirishdan 0,5 soat oldin kuniga 2 marta ichirib turish, tarkibi: 10,0 g natriy xlorid, 0,25 g kaliy xlorid, 50,0 g glyukoza va 0,5 g kofein natriy benzoat, 5,0 g natriy gidrokarbonat va 1000 ml gacha distillangan suvdan iborat "Elektrolitli-degidratatsion eritma"dan kuniga bir marta vena qon tomiriga tomchilatish usulida yuborishning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lib, buzoqlarning qisqa muddatlarda (o'rtacha 5 kun) to'liq sog'ayishini va tana vaznining kunlik o'sishini 19,2 foizga ortishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Равшанова, Ф. (2024). Пути и методы снижения радиационного воздействия использование молока и мяса. *in Library*, 2(2), 338-340.
2. Ravshanova, F. S. (2024). WAYS AND METHODS OF RADIATION IMPACT REDUCTION USE OF MILK AND MEAT. *Ustozlar uchun*, 1(1), 338-340.
3. Ibragimov, B., Ubaydulaeva, Y., & Ravshanova, F. (2022). HAYVONLARNING RADIATSIYA BILAN TA'SIRLANGAN TANANING VA A'ZOLARINI VETERINARIYA-SANITARIYA EKSPERTIZASI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 95-98.
4. Bakirov, B., & Ravshanova, F. S. (2024). HAYVONLARDA BRONXOPNEVMONIYANING KELIB CHIQISH SABABLARI VA KLINIK BELGILARI BO 'YICHA ADABIYOT M'LUMOTLARI. *Yangi O 'zbekiston ustozlari*, 2(29), 25-31.
5. Эшбуриев, Б. М., Алимов, Б. С., & Эрназаров, Б. (2023). СОФИН СИГИРЛАР РЕПРОДУКТИВ КЎРСАТКИЧЛАРИГА "MIOSTA H®" ПРЕПАРАТИНИНГ ТАЪСИРИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 34(3), 142-145.

6. Alimov, B. S., & Xamidov, M. X. (2023). SIGIRLARDA GINEKOLOGIK KASALLIKLARNI DAVOLASHGA YANGICHA YONDOSHISH. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 92-95.

7. Юнусов, Х. Б., Эшбуриев, Б. М., & Алимов, Б. С. (2024). Дисфункция яичников и субинволюция продуктивных коров и бесплодия в последствие их. *Ustozlar uchun*, 1(1), 333-337.

8. Alimov, B., Sidikov, B., Urazov, S., Yunusov, K., & Eshburiyev, B. (2024). Uterine subinvolution, ovarian hypofunction in productive cows and infertility as a result of their. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 118, p. 01016). EDP Sciences.

9. Alimov, B. S., Sidiqov, B. T., & Eshburiyev, B. M. (2024). BEPUSHT SIGIRLARNING KLINIK MORFOBIOKIMYOVIY KO 'RSATGICHLARI. *Yangi O 'zbekiston ustozlari*, 2(29), 13-16.